

Bolalarda OIV-infeksiyasida retrovirusga qarshi terapiyaga sodiqlik darajalarining immunologik ko'rsatkichlarga ta'siri

Sadikov Xumoyun Mirzo Abdullayevich.

Toshkent Davlat tibbiyot universiteti "Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari" kafedrası assistenti.

Annotatsiya: Tadqiqotda OIV-infeksiyali bolalarda antiretrovirus terapiyaga (ARVT) sodiqlik darajasining CD4+ limfotsitlar mutlaq ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. 695 bemor ma'lumotlari tahlil qilindi, median CD4+ ko'rsatkichi $516,6 \pm 10,7$ hujayra/ml bo'lib, norma doirasida edi. Past sodiqlik guruhida normal daraja faqat 31,2% bemorlarda qayd etildi, 33,9%ida CD4+ 200 hujayradan past edi. O'rta sodiqlikda normal daraja 49,1% ($p < 0,001$), yuqori sodiqlikda esa 57,2%ga yetdi, 200 hujayradan past bo'lganlar faqat 8% ni tashkil qildi ($p < 0,001$). Natijalar ARVTga yuqori sodiqlik immunologik tiklanishni sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi, ammo CD4+ darajasining to'liq tiklanishi uchun uzoq muddatli kuzatuv zarurligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: OIV infeksiyasi, antiretrovirus terapiyasi, sodiqlik, CD4+ limfotsitlar, immunitet defitsiti, bolalar, immunologik tiklanish.

Kirish

OIV-infeksiya (inson immunitet tanqisligi virusi) butun dunyoda bolalar salomatligiga tahdid soluvchi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham OIV bilan kasallangan bolalar soni ortib bormoqda. Bolalarda immun tizimi holatini baholashda CD4+ limfotsitlar asosiy diagnostik marker hisoblanadi. ARVT (antiretrovirus terapiya) immun tizimni qo'llab-quvvatlash va kasallikning og'ir asoratlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq ARVT samaradorligi ko'p jihatdan bemorlarning davoga sodiqligiga bog'liq. Past sodiqlik nafaqat virusologik muvaffaqiyatsizlikka, balki og'ir immunodefitsit rivojlanishiga ham olib keladi. Shu sababli bolalarda ARVTga rioya qilinishining immunologik ko'rsatkichlarga ta'sirini chuqur o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqsad: OIV-infeksiyali bolalarda ARVTga sodiqlik darajalarining immunologik ko'rsatkichlarga, xususan, CD4+ limfotsitlar soni va immunodefitsit darajalariga ta'sirini aniqlash.

Material va metodlar: Tadqiqot 2021–2024 yillarda Respublika OITSga qarshi kurash markazi va Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti klinik bazalarida o'tkazildi. Kuzatuvga 695 nafar OIV-infeksiyali bolalar (0–18 yosh) jalb qilindi. Tadqiqot dizayni — prospektiv kuzatuvchi.

- Yosh taqsimoti: 15–18 yosh — 90,6%, 8–14 yosh — 7,5%, 0–7 yosh — 1,9%.

- Klinik bosqich: III bosqich — 63,5%, IV bosqich — 33,8%, II bosqich — 2,7%.

Sodiqlik darajasi ARVTga rioya qilish ko'rsatkichlari asosida 3 guruhga ajratildi: past, o'rta va yuqori.

Immunologik ko'rsatkichlar sifatida CD4+ limfotsitlarning mutlaq soni (huj/ml) va immunodefitsit darajalari (yengil, o'rtacha, og'ir) baholandi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda odatda CD4+ ning nisbiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi, biroq bizning tanlanmada ularning soni kamligi (n=8) bois barcha bemorlarda mutlaq ko'rsatkichlar asos qilib olindi.

Natijalar: Umumiy median CD4+ limfotsitlar darajasi $516,6 \pm 10,7$ huj/ml bo'lib, normaga mos keldi.

- Past sodiqlik guruhi: faqat 31,2% bolalarda normal CD4+ darajasi kuzatildi, 33,9% da esa <200 huj/ml bo'lib, yuqori letallik xavfi bilan bog'liq edi.

- O'rta sodiqlik guruhi: normal CD4+ darajasi 49,1% hollarda qayd etildi ($p < 0,001$), biroq bemorlarning yarmidan ko'pida immunitet past edi, 9,1% da ko'rsatkich <200 huj/ml bo'ldi.

- Yuqori sodiqlik guruhi: normal CD4+ darajasi 57,2% gacha oshdi ($p < 0,001$), <200 huj/ml bo'lgan bolalar ulushi esa eng past — 8% ni tashkil etdi.

Immunodefitsit darajalari:

- Past sodiqlik guruhida 43,1% hollarda og'ir immunodefitsit kuzatildi, immunodefitsit yo'qligi esa atigi 20,2% da qayd etildi.

- O'rta sodiqlik guruhida 59,4% bolalarda immunodefitsit kuzatilmadi, biroq 10,3% hollarda o'rtacha yoki og'ir immunodefitsit saqlanib qoldi.

- Yuqori sodiqlik guruhida 84,4% hollarda immunodefitsit kuzatilmadi, 14,8% da yengil immunodefitsit bo'ldi, faqat 0,7% hollarda o'rtacha daraja qayd etildi.

Muhokama

Olingan natijalar ARVTga sodiqlik darajasi bevosita immunologik tiklanish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Past sodiqlik guruhida CD4+ limfotsitlarning jiddiy pasayishi va og'ir immunodefitsit ulushining yuqoriligi kasallikning og'ir oqibatlarga olib kelish xavfini tasdiqlaydi.

Yuqori sodiqlik guruhida bemorlarning katta qismida immun tizimi normal yoki yaqin normal ko'rsatkichlarda bo'lsa-da, CD4+ hujayralarning tiklanishi uzoq muddat talab etishi bois, ayrim hollarda past ko'rsatkichlar saqlanib qolishi tabiiy hol hisoblanadi. Bizning natijalarimiz boshqa xalqaro tadqiqotlar (UNAIDS, WHO, PENTA) bilan hamohang bo'lib, bolalarda ARVTga qat'iy rioya qilinishi immunologik samaradorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

Xulosa:

1. OIV-infeksiyali bolalarda ARVTga sodiqlik darajasi CD4+ limfotsitlar soni va immunodefitsit og'irligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.
2. Past sodiqlik guruhida uchdan bir qism bolalarda <200 huj/ml darajasida CD4+ aniqlanib, bu yuqori o'lim xavfi bilan bog'liq bo'ldi.
3. Yuqori sodiqlik guruhida 84,4% hollarda immunodefitsit kuzatilmadi, bu ARVT samaradorligini ko'rsatadi.
4. Natijalar bolalarda ARVTga muntazam va qat'iy rioya qilishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNAIDS. Global HIV & AIDS statistics — 2023 fact sheet. Geneva: Joint United Nations Programme on HIV/AIDS; 2023.
2. WHO. Consolidated guidelines on HIV prevention, testing, treatment, service delivery and monitoring: recommendations for a public health approach. Geneva: World Health Organization; 2021.
3. ВИЧ-инфекция у детей: клинические рекомендации. – Moskva: Rossiya SSV; 2020.
4. Tuychiev L. Height-weight indices in HIV-infected children in Uzbekistan // International Journal of Infectious Diseases. 2014.
5. PENTA HIV Guidelines Writing Group. PENTA guidelines for the management of HIV infection in children and adolescents living in Europe, 2021. HIV Medicine. 2022;23(2):98–120.